

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

ABDULLA QODIRIYNING “OBID KETMON” QISSASIDA LEKSIK ARXAIZMLAR

Ma'rufjon Kambarov Abduhakimovich,
Guliston davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: o'zbek tilshunosligida leksik arxaizmlar mavjud voqelikning boshqa bir, o'zgacha nomi bo'lib, tilning tasvirlanayotgan davri lug'atiga xos bo'ladi. Arxaik so'zlar o'zi nomlayotgan voqelikni anglatuvchi leksik birliklar bilan yonma-yon yashaydi va ularning o'zaro sinonimik munosabati bilan bog'liq holda baholanadi. Sinonimiya bilan bog'liq bo'lgani sababli bir sinonimik uyaga mansub birliklarning qiyosiga asoslanadi, nutqda shu sinonimlardan eng o'rinlisi tanlab ishlatiladi. Arxaizmning lug'at boyligiga odatdagi leksik birlik sifatida qaytishi juda oz uchraydi. Arxaizm eskilik bo'yog'ini yo'qotadi-yu, odatdagi leksik birlikka aylanib ketadi, leksik ma'noda katta o'zgarish sodir bo'lmaydi. Arxaik so'zlar bugungi kunda odatdagi deb qaraluvchi leksik birlikning uslubiy sinonimi bo'ladi va ma'nolari lug'aviy birliklar qurshovida, aniqroq qilib aytganda, matn (kontekst)da namoyon bo'ladi. Jumladan, Abdulla Qodiriy “Obid ketmon” asarida arxaizmlardan davr ruhini ochib berish uchun unumli foydalangan.

Kalit so'zlar: leksik arxaizmlar, arxaik so'zlar, turkiycha so'zlar, arabcha so'zlar, tojikcha-forscha so'zlar, mavzuviy guruh, uslubiy vosita, sinonimik qator.

Annotation: In Uzbek linguistics, lexical archaisms are another, special name for the existing reality and are characteristic of the vocabulary of the period of the language being described. Archaic words live next to lexical units representing the reality they name and are assessed in connection with their mutual synonymy. Since it refers to synonymy, based on a comparison of units belonging to one synonymous nest, the most suitable of these synonyms is used in speech. Rarely does an archaism return to vocabulary as a regular lexical unit. The archaism loses the coloring of antiquity and becomes a regular lexical unit, the lexical meaning does not undergo much change. Archaic words are stylistic synonyms of lexical units that are considered normal today, and their meanings are manifested in the context of lexical units, more precisely, in the text (context). In particular, Abdullah Kadiri effectively used archaisms to reveal the spirit of the times in the work “Obid ketmon”.

Keywords: lexical archaisms, archaic words, Turkish words, Arabic words, tajik-persian words, thematic group, methodological tool, synonymy.

Аннотация: В узбекском языкознании лексические архаизмы являются другим, особым названием существующей действительности и характерны для лексики периода описываемого языка. Архаичные слова живут рядом с лексическими единицами, репрезентирующими реальность, которую они называют, и оцениваются в связи с их взаимной синонимией. Поскольку он относится к синонимии, основан на сравнении единиц, принадлежащих к одному синонимическому гнезду, в речи используется наиболее подходящий из этих синонимов. Редко когда архаизм возвращается в лексику как регулярная лексическая единица. Архаизм теряет окраску старины и становится регулярной лексической единицей, лексическое значение не претерпевает большого изменения. Архаичные слова представляют собой стилистические синонимы лексических единиц, которые сегодня считаются нормальными, а их значения проявляются в контексте лексических единиц, точнее, в тексте (контексте). В частности, Абдулла Кадири эффективно использовал архаизмы для раскрытия духа времени в произведении «Обид кетмон».

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Ключевые слова: лексические архаизмы, архаические слова, турецкие слова, арабские слова, таджикско-персидские слова, тематическая группа, методический инструмент, синонимия.

KIRISH. A.Qodiriyning “Obid ketmon” qissasida arxaik soʻzlar koʻproq qoʻllangan boʻlib, buning sabablaridan biri shuki, unda yangilikka intiluvchilar bilan eskilikni qoʻmsovchilar oʻrtasida roʻy bergan gʻoyaviy kurash oʻz ifodasini topgan. Tabiiyki, bunday holat personajlar nutqida aks etmasligi mumkin emas edi. Ikkinchidan, asar muallifi nutqida ham leksik arxaizmlar ishlatilgan boʻlib, buni yozuvchining oʻtmish hayot, yashash tarzi bilan yaxshigina tanish ekanligi bilan izohlash mumkin. Asarga yozilgan epigrafdagi ikkita, yaʼni sotsial va sovet leksemalari hozirgi kun koʻzi bilan qaraganda, arxaiklashgan lugʻaviy birliklar qatoridan joy oldi. Shunisi qiziqki, hozirda sotsial oʻrnida ijtimoiy, sovet oʻrnida qoʻllangan shoʻro [1] (OʻTIL, 2023 [2]da unga esk., yaʼni “eskirgan soʻz” pometasi qoʻyilgan boʻlishiga qaramay) leksemalari publitsistik va tarixiy asarlarda isteʼmolda qoʻllanayotgan boʻlsa-da, sobiq sovet davri bilan birga eskirgan soʻzga aylandi. Lekin bu tarixiy soʻzlarning butunlay tildan chiqdi, degani emas.

МЕТОДОЛОГИЯ

Endi badiiy asar matnidagi leksik arxaizmlarga eʼtiborni qaratsak. Asar muallifi nutqida yana quyidagi arxaik soʻzlar ishlatilgan: Mahzun (sinonimi: hazin, mungli, gʻamgin; OʻTILda esk. pometasi qoʻyilgan): *Ahyonda bir beda angʻizida oʻtlab yurgan ariq hoʻkiz va qovurgʻasi sanalib koʻringan yagʻir otlar bu manzaraga yana mahzun bir ohang berib... oriq mollarni tashlab ketgan deb oʻylashga majbur qiladi* [3,9]. Mahzun (OʻTIL (2006-2008); OʻTIL, 2023) da arabcha soʻz, eskirgan kitobiy deb koʻrsatilgan, lugʻaviy maʼnolari – *hazin, mungli, gʻamgin*) oʻzining arxaizmlik xususiyati soʻzlashuv nutqi uslubi yoki nasriy asarlar tili nuqtayi nazaridan belgilanmoqda. Aslida bu soʻz oʻzbek sheʼriy nutqida ishlatiladi va arxaizm sanalmaydi. Chunonchi: Uzun tunlar bunchalar *mahzun*, Mahzun tunlar bunchalar uzun (Iqbol Mirzo); Rubobim tori ikkidur: biri quvnoq, biri mahzun, (E.Vohidov. Muhabbat).

Goʻzal Turkiston, senga ne boʻldi?

Sahar vaqtida gullaring soʻldi.

Chamanlar barbod, qushlar ham faryod,

Hammasi mahzun, boʻlmasmi dil shod?

Bilmam, ne uchun qushlar uchmas bogʻchalaringda?

(Choʻlpon. “Goʻzal Turkiston”).

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

Yana misollarga murojaat qilamiz: **tavajjuh** (arabcha-yo'nalish, intilish; mayl, muhabbbat, biror kishiga murojaat qilish, yuzlanish, diqqat; biror tomonga yurish, jo'nab ketish) [2,135-bet] – 1. Xayri –xohlik bilan yuzlanish, qarash, diqqat-e'tibor; 2. Yuzlashuv. 2. Yurish (harbiy). 3. Burilmoq, o'girilmoq: (sinonimi: diqqat-e'tibor): Kishi qaysi darajalarda individualist bo'lmasin, na darajada o'zini ko'pchilikdan chetga olmasin, baharhol, ko'pchilikning **tavajjuhi** [4], tarbiyasi hazil gapga o'xshamaydi [3,33]; ...alar bu kelmakdin usoydilar, balki bu **tavajjuh**din pushaymon bo'lib, bemurod yondilar [5,142]. Birinchi gapda qo'llangan **tavajjuh** leksemasi “diqqat-e'tibor, qarash” ma'nolarida, ikkinchi gapda “harbiy yurish” ma'nosida qo'llanilgan. O'TIL, 2023, 135-betda esk.kt. belgisi qo'yilmagan; **mubohasa** (arabcha muhokama, munozara, bahs, muzokara) kt. [2,243] – bahslashish, bahs, munozara: Ilmini Xatib domlanikidan past deb bo'lmasa ham (chunki ba'zi **mubohasada** uni mulzam ham qilib qo'yadi), lab-dahan ebida... ham bo'lsa kerak [3,55]; Munozara birmuncha jiddiylashib, **mubohasa** hatto domlaning obro'yiga ...to'qinadigan bo'ldi [3,89].

Asarda zamona zayli bilan qator ruscha-baynalmilal leksemalar ishlatilgan. Bular o'sha davrda o'zbek tilida faol qo'llangan neologizmlar jumlasiga kirar edi. Endilikda esa ularning bir qismi “eskirgan” bo'yog'iga ega bo'lib qolmoqda. To'g'ri, asarda bunday leksemalar tarixiy so'zlarga nisbatan kamroq ishlatilgan. Quyida shunday arxaizmlarning ayrimlarini namuna tariqasida keltiramiz: **rayon** (asli fransuzcha – keng maydon, katta kenglik; lotincha regio, regionis-viloyat, o'lka, chegara) [2,406] – tuman; tuman markazi; hozirda tuman: **Rayondan** yuborilgan vakil – Rafiqov ochiq yuzli, ichi kirsiz, tabiati sodda bir ishchi [3,114]; **sklad** (ruscha skladvat – “taxlamoq, joylashtirmoq, yig'ib, joylab qo'yimoq” fe'lidan yasalgan ot, hozirda – ombor, [2, 686, eskirgan so'z]): Kelasi yil binokorlik mavsumida... qishloq xo'jalik mashina va asboblari **skladi**...bino qilinmoqchi... [3,12]. Hozirda ommaviy nutq, ya'ni so'zlashuv uslubida parallel ravishda qo'llanmoqda. Diqqatga sazovor bir dalil: ayni shu leksema ishlatilgan gapning o'zida, undan sal yuqoriroqda uning o'rnida hozirda qo'llanayotgan **ombor** (arava, ot jabduqlari saqlanaturgan **ombor**) leksemasidan ham foydalanilgan.

Misollarning tahlilini yana davom ettiramiz: **prezidium** (lotincha – oldinda o'tirmoq, raislik qilmoq) (O'TIL, 2023, 802-bet, esk. belgisi negadir qo'yilmagan). 2000-yillarda **rayosat** [6], hozirda – **hay'at** ma'nosida qo'llanilmoqda: **Prezidiumda** o'tirgan Obid ketmon Rafiqovning ma'ruzasidan so'ng kechagi javobsiz qolgan masalalarni yechilgan hisoblaydi... [3,122]. **Prezidium** leksemasi A.Qahhorning “Sarob” romanida ham ishlatilgan: Abbosxon **prezidium** stoli yoniga o'tirdi [3,21];

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

raport asli fransuzcha rapport – olib kelish; olib borish; qaytarib olib kelish ma'nolarini bildiradi [2,386]. Hozirgi kunda xabar, axborot; bildirgi, bildirish, bildirishnoma; yozma yoki og'zaki hisobot ma'nolarida ishlatilmoqda.: Yetti bo'ltakning hammasidai ham haligidek raport olingandan so'ng, Mulla Obid yigirma to'qqizinchi, o'ttizinchi aprel kunlarini... qishloqni tozalash kuni, deb e'lon qiladi [3,165-166]; **aybona** (arabcha, asli 'aiba bosh ma'nosi "biror kamchilik topib urishdi", [2,191, eskirgan so'z). O'zbek tiliga "kamchilik", "nuqson" kabi ma'nosi bilan o'zlashgan, keyinchalik "qonun-qoidaga xilof, uyatli ish, xatti-harakat; jamoat tartibini buzganlik, yetkazilgan zarar kabilar uchun undiriladigan (to'lanadigan) jarima, tovon" ma'nosini anglatga boshlagan. O'zbek tilida bu so'z asosida aybli, aybona, aybsin so'zlari yasalgan: Egamberdi, shu bug'doyning vazniga baravarlab... aybonang uchun ustiga o'zimizdan bir pud un ham qo'sh... [3,95]; **sayyor, sayyora** (arabcha sayyar – sayyar (sayyor); sara fe'lining "yurdi" ma'nosi bilan yasalgan ot bo'lib, "doim yurib turuvchi kishi, "ko'chib yuruvchi" ma'nolarini anglatadi) [7,375], [2,191, eskirgan kitobiy so'z) – sayr etuvchi, kezuvchi, sayyoh – aynan sayyoh: Nosirboy ham bo'sh kelmaydi: – Men! Nomim Nosir Sayyori Samarqandiy [3,96]; Sayding qo'ya ber, sayyod, sayyora ekan mendek (Furqat, "Sayding qo'ya ber, sayyod" she'ridan); **qo'pmaq, qo'pmaq** (turkiy – qo'pdi1 – oyoqqa turdi; qo'pdi2 – turdi, qo'zg'alldi, tik turdi; qo'pdi3 – parvoz qildi (qopar, qo'pmaq) – qadimgi turkiy tilda qop fe'li "ko'taril", "tik tur" ma'nosini anglatgan [8,371] [2,335, eskirgan so'z) – yuzaga kelmoq, sodir bo'lmoq, ro'y bermoq; qo'zg'almoq: Go'yoki osmon chatnab, qiyomat qo'pgandek bo'ldi [3,112]; **o'rtahol dehqon** [2,447, eskirgan so'z) – yashash, turmush darajasi o'rtacha bo'lgan; boy ham emas, lekin kambag'aldan durustroq hayot kechiruvchi dehqon: Bu kishi qishlog'imizning o'rtahol dehqonlaridan, ko'p tajribakor..., [3,162]; Yangi O'zbekistonda o'rta sinf tadbirkorlar ko'paymoqda (Gazetadan).

XULOSA

Voqelikning tarixga aylanishi, o'z umrini yashab turishi bilan so'zning eskirishi o'rtasida farq bor, chunki eskirgan so'z yangi voqelik bilan to'liq ma'no-mazmunga ega bo'lsa, u eskilik bo'yog'ini yo'qotib, zamonaviy so'zga aylanadi. Masalan, 30-yillar badiiy nasrida eskirgan so'zlar bo'lgan **vazir** leksemasi mustaqillik davrida yangi mazmun kasb etib, faol lug'at fondiga qaytdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Chunonchi: Sho'rolar zo'ravonligi paytida ko'pgina qadriyatlarimiz toptaldi, unutga olindi (Darakchi, 99/15).

“IZLANISH SAMARALARI”

№9 mavzusidagi respublika an'anaviy ilmiy-nazariy anjumani

2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 6 Jildli. – Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uy, 2023. Bundan keyingi ko'rsatilgan betlar mazkur lug'atdan olingan.
3. Qodiriy Abdulla. Obid ketmon. – Toshkent: Uzadabiynashr, 1959. Bundan keyingi ko'rsatilgan betlar mazkur asardan olingan.
4. Raxmonov V. Mazkur so'z (tavajjuh)ning “1. Yuzlashuv. 2. Yurish (xarbiy). 3. Burilmoq, o'girilmok” kabi ma'nolari borligini qayd etadi va “Boburnoma”dan quyidagi misolni keltiradi: ...alar bu kelmakdin usoydilar, balki bu tavajjuh din pushaymon bo'lib, bemurod yondilar (O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent, 1983. – B.142.
5. O'zbek klassik adabiyoti asarlari uchun qisqacha lug'at. – Toshkent, 1983. –B.142.
6. O'TILda esk. (eskirgan) pometasi bilan “majlisni boshqaruvchi Prezidium, prezidium sostavi” tushunchasi hay'ati rayosat birikmasi orqali ifodalanishi qayd etilgan va H.Shamsning “Dushman” romanidan uni tasdiqlovchi quyidagi matn keltirilgan: Majlisni jamoa sho'rosining topshirig'i bilan Jo'ra batrak ochdi. Hay'ati rayosatga Salimov, Jo'ra, Qo'shoq, Nodira xola va Norbuvilar saylandi.
7. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati (arabcha so'zlar), 2006. – B. 70.
8. Devonu lug'otit turk, indeks-lug'at. – Toshkent, 1967. – B.371.